

**KO‘Z LEKSEMASINING MA‘NO TARAQQIYOTIDAGI LINGVO-
MADANIY XUSUSIYATLAR (O‘ZBEK VA INGLIZ TILI TALQINIDA)**

*Ilmiy rahbar: p.f.n dotsent: Abdullayeva Dildora Abdinabiyevna
Aktamova Munisa Shahobiddin qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Tarix va filologiya” fakulteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: aktamovamunisa6@gmail.com*

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada Ingliz va O‘zbek tillaridagi eye/ko‘z so‘zlari ishtirokidagi somatik frazeologizmlar va ularning qiyosiy tahlili ko‘rib chiqilgan. Ingliz va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili bir qancha misollar bilan tahlilga tortilgan. Shuningdek ikki til o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklar taqqoslab ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ibora, frazeologizm, frazeologiya, frazeologik birlik, somatizm.

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСЕМЫ ГЛАЗ
В РАЗВИТИИ ЗНАЧЕНИЯ (В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ
ИНТЕРПРЕТАЦИИ)**

*Научный руководитель: п.ф.н доцент: Абдуллаева Дилдора Абдинабиевна
Актамова Муниса Шахабиддиновна
Ташкентский университет прикладных наук
Факультет “Истории и филологии”
Студентка 2-курса “Узбекский язык и литература”
T-mail: aktamovamunisa6@gmail.com*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается соматическая фразеология глазных слов в английском и узбекском языках и их сопоставительный анализ. На нескольких примерах анализируется сопоставительный анализ соматических фразеологизмов английского и узбекского языков. Также сравниваются различия и сходства между двумя языками.

Ключевые слова: словосочетание, фразеологизм, фразеология, фразеологизм, соматизм.

LINGUISTIC-CULTURAL FEATURES IN THE DEVELOPMENT OF THE MEANING OF THE LEXEME EYE (IN UZBEK AND ENGLISH INTERPRETATIONS)

Scientific supervisor: p.f.n associate professor: *Abdullayeva Dildora Abdinabiyevna Aktamova Munisa Shakhbiddinovna*
Tashkent University of Applied Sciences
Fakulty of "History and Philology"
 2nd stage student of "Uzbek language and literature"
 E-mail: aktamovamunisa6@gmail.com

ABSTRACT

In this article, somatic phraseology involving eye words in English and Uzbek languages and their comparative analysis are considered. Comparative analysis of somatic phraseological units in English and Uzbek languages is analyzed with several examples. It also compares the differences and similarities between the two languages.

Key words: phrase, phraseologism, phraseology, phraseological unit, somatism.

Bugun O‘zbekiston Respublikasi barcha rivojlangan davlatlar tan olgan va dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan mustaqil davlatlardan biridir. Respublikamizda bo‘layotgan jamiyatning barcha sohasidagi yangiliklar O‘zbekistonimizning yanada gullab yashnashiga olib bormoqda. Yurtimizda ayniqsa ta‘lim sohasiga katta e‘tibor berilayotgani yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga o‘zining ijobiy hissasini qo‘shmoqda. Ayni vaqtda, O‘zbekistonda chet tillariga, ayniqsa ingliz tiliga bo‘lgan qiziqish va talabning ortib borishi natijasida ta‘lim tizimida chet tillarini o‘qitish bo‘yicha yangi qaror va farmonlarning ijrosi davlatimiz miqyosida olib borilmoqda.

Frazeologik birliklarni o‘rganish jarayonida qiyosiy-chog‘ishtirish taqqoslash usulidan foydalanishni olimlar munozarali va hatto imkonsiz deb hisoblashgan. Ammo yigirmanchi asrning 60-yillarining ikkinchi yarmida birinchi marta qiyosiy, tizimli-tipologik va areal frazeologiya masalalari samarqandlik tilshunoslar L.I.Royzenzon va Yu.Yu. Avaliani asarlarida ilk bor ko‘tarilgan hamda frazeologiyaning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida turli tizimli tillar va hattoki tipologik jihatdan har xil tillar frazeologiyasini qiyosiy o‘rganishning ahamiyati alohida ta‘kidlangan.¹

Har bir tilning frazeologizmi o‘sha xalqning o‘ziga xos urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, dunyoqarashi hamda tadrijiy rivojlanish tarixini aks ettiradi. V.A.Maslovaning fikriga ko‘ra "tilning frazeologik fondi xalqning madaniyati va

¹ J.I.Mamarasulova. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZELOGIK BIRLIKLARNING ANTROPOPRAGMATIK TADQIQI.J.:2022.

mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda xalqning afsonalari, urf-odatlarini, marosimlari, bayramlari, odob-axloqi mujassamlashgan".²

O'zbek va ingliz tillarining frazeologik birliklari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar nimada, ular tilda asosan qanday namoyon bo'ladi; ular qanday intralingvistik va ekstralingvistik omillar bilan belgilanadi, somatik frazeologik birliklarning tillararo ekvivalentligi darajasi qanday degan savollarga javob topish mumkin bo'ladi. Frazeologizmning o'ziga xos xususiyati shundaki, u ozmi ko'pmi, tilning yaruslaridagi asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Frazeologik birliklar uchun leksika yoki so'z birikmasi asos hisoblanadi. Frazeologik birliklar so'zlarning o'zaro uyushmasidan shakllanadi. Shu sababli qiyosiy frazeologik tahlilning o'ziga xos xususiyati - birlamchi tizimlarni - leksika va grammatikani, shuningdek ularning frazeologiyada namoyon bo'lish xususiyatlarini hisobga olish zaruriyati kelib chiqib o'rganiladi.³

Frazeologiyaning maxsus somatik frazeologizmlar deb ataladigan maxsus qatlami bor, ularning tarkibi inson tanasidagi u yoki bu qismini bildiruvchi so'zlarni o'z ichiga oladi. Somatizm atamasi ham yunoncha "soma" so'zidan olingan bo'lib "tana" degan ma'noni anglatadi. Somatizm yoki somatik komponentli frazeologik birlik deganda insonning tana a'zolari, imo-ishoralari, mimika va yuz ifodalariga tegishli bo'lgan birliklar tushuniladi. Tilshunoslikka "somatic" atamasi F. Vakk tomonidan kiritilgan bo'lib, jahon tilshunoslaridan S.G Alekseyeva, R.M Vayntraub, R.Y Mugu, E.V Nikolina, O.A Kononova, V.P Shubina, M.N Azimova, T.N Chayko, T.N Fedulenkova somatik frazeologizmlarga oid asarlar yozishgan. O'zbek tilshunosligida Y. Pinxasov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, B. Yo'ldashev, A.Mamatov, A.Isayev, Sh.Abdullayev, Sh.Usmanov somatik frazeologik birliklar ustida o'rganish olib borishgan. Ushbu maqolamizning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillarida eye/ko'z so'zlari komponentli somatik frazeologizmlarni misollar orqali qiyosiy tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashdir. Tadqiqotlarimiz natijasida shuni aniqladikki, ingliz tilida ham o'zbek tilida ham eye/ko'z komponentli frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular turlicha ma'no-munosabatlarni ifodalaydi. Ularning orasida bir qancha o'xshash birliklarni ham aniqladikki, ular ham leksikologik ham semantik jihatdan aynan bir-biriga ekvivalent bo'la oladi.⁴

Frazeologik birlik lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi- bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan bunday hodisalar hali ham onda sonda

² Kochkorova, Z. A. (2022). THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE OF THE CONCEPT OF "WEDDING" IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(6), 250-253.

³ Kunin A.V. Frazeologiya sovremennogo angliyskogo yazika-M.: 2016 g.15-24-betlar.

⁴ Gafurova, N. 1. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 571-575. 6. Абдухалимова, С. (2022). THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(4).

ro‘y berib turibdi; Talks between staff and management will resume after a two week cooling off period.

Ayrim frazeologik birliklar turli diniy aqida, tushuncha, rivoyat asosida ham shakllanadi. Masalan, ko‘z tegmoq, ko‘zi uchmoq; devil’s advocate, a voice crying out in the wilderness kabilar shular jumlasidandir.⁵

Qiyoslanayotgan har ikki tilda ko‘z leksemali somatik frazeologizmlar mahsuldor hisoblanadi. Chunki insonning olamni anglashida, uni lisoniy tasvirini ongida yaratishida ko‘z eng asosiy sezgi a'zolaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilida qo‘llaniladigan quyidagi birliklar bunga misol bo‘la oladi:⁶

1. To be apple of one's eye (someone or something that is very important to someone; someone or something that they like very much) qadrlı, suyuqli, aziz bo‘lmoq.

Misol: I know I shouldn't pick favorites but of all my grandchildren, my first granddaughter is the apple of my eye. Nabiralarimni ajratish yaxshi emasligini bilsamda, men uchun bosh nabira qizim eng suyuqli.

2. Have an eye for something (to be good at noticing and appreciating something) biror narsaga qobiliyatli, mohir bo‘lmoq.

Misol: My aunt has an eye for home decoration and always finds beautiful paintings and antiques at the flea market. Xolam uy bezatishda mohir, har doim do‘kondan ajoyib va chiroyli rang devor bo‘yoqlarni topadi.

3. Catch one's eye (to attract or capture someone's attention) jalb qilish, e'tiborini tortish.

Misol: I was walking along with something shiny caught my eye. Someone had dropped their diamond wedding ring! Yurib ketarkanman yaltiroq narsa e'tiborimni tortdi. Kimdir olmos ko'zli uzugini tushurib qo'yibdi!

4. Turn a blind eye (to ignore something) - e'tibor bermaslik, ko‘z yumish. Misol: I knew my son was lying to me but I turned a blind eye because I didn't want him to be upset. O‘g‘limning yolg‘on gapirayotganligini bilib turardim lekin uni xafa qilmaslik uchun bunga ko‘z yumdim.⁷

Yuqoridagi misollardan aniqlash mumkinki, ko'zning atrofni vizual kuzatish funksiyasi va inson uchun bebaho tana a'zosi bo'lganlik ma'nosi atrofida qurilgan somatik birliklar ularning aksariyatini tashkil qiladi. Shuningdek o'zbek tilida mavjud somatik frazeologizmlardan ham bir qancha misollar ko'rishimiz mumkin.

1. Ko‘zining oqu qorasi - eng yaqin kishisi, yakkayu yolg‘izi (ko‘pincha farzand haqida). Misol: Nainki bitta shu qizi deb umrini o‘tkazsa, ko‘zining oqu qorasi deb avaylasa, o‘stirsa-yu, u yuziga tik qarasa. (O‘. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»)

⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. М.: Academia, 2004. -204 с.

⁶ M.M.Mamajonova, G.F.Yoqubova. Ingliz va o‘zbek tillaridagi eye/ko‘z so‘zi ishtirokidagi somatik frazeologizmlarining qiyosiy tahlili.F.:2022.

⁷ Gulyora, L. (2022). Stylistic Use of Phraseological Units in the Olinguistics, CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(6), 276-278.

2. Ko‘zini yog‘ bosmoq, uncha-munchani, hatto tanishlarni ham tanimaydigan (nazarga ilmaydigan) bo‘lmoq. Misol: Men ko‘zini yog‘ bosgan bandalarga elanmayman, arzimni xudoga aytaman. (K. Yashin, «Hamza»)
3. Ko‘zi moshdek ochilmoq aqli joyiga kelmoq, ahvolni yaxshi (to‘g‘ri) fahmlaydigan holga kelmoq. Misol: Haligina "otish, qirib tashlash kerak", deb bu kuchni mensimayotgan Kitayevning ko‘zi moshdek ochilib, ahvolning nihoyatda murakkabligini fahmladi. (K. Yashin, «Hamza»)
4. Ko‘z yummoq ko‘rib, bilib turib e‘tibor bermaslik. Misol: "Itoatdan bosh tortmasin..." degan mulohazada yozg‘an shikoyatlarimizdan markazning ko‘z yumishi ham ehtimoldir. (A. Qodiriy, "O‘tkan kunlar")
5. Ko‘z yummoq-uxlamoq, uyquga ketmoq. Misol: Kumush ko‘z yumish o‘rniga yostiqdan boshini uzdi va yerga tushkan ro‘ymolini o‘rab, o‘lturdi. (A. Qodiriy, "O‘tkan kunlar")
6. Ko‘z yummoq olamdan o‘tmoq, o‘lmoq.

To turn a blind eye hamda ko‘z yummoq iboralari aynan bir-biriga ekvivalent bo‘la oladi. To be apple of one's eye hamda ko‘zining oq-u qorasi iboralari esa ham semantik jihatdan ham leksik tarkibi jihatidan ham struktural jihatidan o‘zaro mos keladi deb ayta olamiz.⁸

Turli tillardagi somatik frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish ushbu tillarning tuzilishi va tabiatini chuqur anglab yetish, o‘sha tilda gapiruvchi insonlarning dunyoqarashi, fe‘li, madaniyati, o‘ziga xosligi, adabiyoti va san‘ati haqidagi tasavvurlarimizni boyitilishiga xizmat qiladi. Ingliz va o‘zbek frazeologik boyligida somatik birliklar salmoqli o‘rin egallaydi hamda tilshunoslar tomonidan ularni inson ruhiy kechinmalarida ta‘na a‘zolarining faol ishtiroki bilan izohlanadi.⁹

Shunday qilib, frazeologik birliklarning tillararo tomoni va funkSIONalsemantik korrelyatsiyasi nisbatan avtonom hodisalardir. Tillararo frazeologik ekvivalentlarning tipologiyasi ularning o‘zaro ta‘siriga asoslangan bo‘lib, ular orasida tarkibiy va funkSIONal-semantik korrelyatsiyani birlashtirgan strukturaviysemantik va funkSIONal-semantik korrelyatsiya mavjud bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gafurova, N. 1. (2021). Structural-semantical classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.
6. Абдухалимова, С. (2022). THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(4).

⁸ Таджиева М. Муҳаббат ҳақидаги инглиз ва ўзбек мақолларининг семантик хусусиятлари //международные научные конференции с высшими учебными заведениями. 2022. Т. 2. -№. 18.03.-С. 179-185.

⁹ <https://uz.m.witinary.org>

2. Gulyora, L. (2022). Stylistic Use of Phraseological Units in the Olinguistics, CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(6), 276-278.
3. Kochkorova, Z. A. (2022). THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE OF THE CONCEPT OF "WEDDING" IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(6), 250-253.
4. Kunin A.V. Frazeologiya sovremennogo angliyskogo yazika-M.: 2016 g.15-24-betlar.
5. Mamarasulova.J.I. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ANTROPOPRAGMATIK TADQIQI.J.:2022.
6. Mamajonova,M.M., Yoqubova.G.F. Ingliz va o‘zbek tillaridagi eye/ko‘z so‘zi ishtirokidagi somatik frazeologizmlarining qiyosiy tahlili.F.:2022.
7. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. М.: Academia, 2004. - 204 с.
8. Таджиева М. Муҳаббат ҳақидаги инглиз ва ўзбек мақолларининг семантик хусусиятлари //международные научные конференции с высшими учебными заведениями. 2022. Т. 2. -№. 18.03.-С. 179-185.
9. <https://uz.m.witinary.org>.